

## VIII. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning turlicligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2022- yilning yanvar–dekabr holatiga)


	mlrd so'm	O'sish surati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Xizmatlar-jami</b>	<b>21 960,3</b>	<b>114,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 153,5	126,1	5,2
moliyaviy xizmatlar	4 738,8	150,5	21,6
transport xizmatlari	3 990,8	103,5	18,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3 694,8	102,9	16,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	565,5	106,9	2,6
savdo xizmatlari	6 504,4	104,6	29,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	549,4	108,7	2,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 192,5	117,7	5,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	470,4	114,7	2,1
ijara xizmatlari	443,2	100,8	2,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	588,7	105,9	2,7
shaxsiy xizmatlar	1 008,3	102,5	4,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	211,9	111,0	1,0
boshqa xizmatlar	542,9	108,0	2,5

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (29,6 %), moliyaviy xizmatlar (21,6 %), transport xizmatlari (18,2 %) tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,0 %), ijara xizmatlari xizmatlari (2,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2,1 %) tashkil etgan.


### 2022- yilning yanvar-dekabr holatiga xizmatlar tarkibi

(jamiga nisbatan %da, katta ulushga ega bo'lganlar)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 29,6 %i), moliyaviy xizmatlar (21,6 %i), transport xizmatlari (18,2 %i), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,2 %i) hissasiga to'g'ri keldi.

### 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Joriy yilning yanvar - dekabr oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlari 6 504,4 mlrd. so‘m, moliyaviy xizmatlar 4 738,8 mlrd.so‘m, transport xizmatlari 3 990,8 mlrd.so‘m, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 1 153,5 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

### 2022- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, %



2022- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi Farg‘ona viloyatida 565,5 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo‘yicha xizmatlar 63,7 mlrd.so‘m, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar 501,8 mlrd.so‘mni tashkil etgan.

### 2022- yil yanvar-dekabr oylarida transport bo‘yicha xizmatlar tarkibi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi Farg‘ona viloyatida 3 990,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 3 694,8 mlrd.so‘mni, jami transport xizmatlarining 92,6 %ini tashkil etadi.


## Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish

(2022- yilning yanvar-dekabr oylarida)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so‘m	2021- yil yanvar-dekabr holatiga nisbatan %da	jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da	ming so‘m	2021-yil yanvar-dekabr holatiga nisbatan %da
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>21 960,3</b>	<b>114,5</b>	<b>100,0</b>	<b>5578,8</b>	<b>112,3</b>
<i>shaharlar:</i>					
Farg‘ona	5 454,0	114,8	24,8	18 037,5	112,5
Qo‘qon	3 085,6	114,6	14,1	11 780,3	112,9
Quvasoy	540,9	115,3	2,5	5 527,5	113,0
Marg‘ilon	1 532,5	114,7	7,1	6 265,2	112,9
<i>tumanlar:</i>					
Oltiariq	1 146,6	115,3	5,2	5 179,0	112,8
Qo‘shtepa	769,4	115,0	3,5	3 828,6	112,1
Bag‘dod	729,0	114,6	3,3	3 231,5	112,3
Buvayda	999,9	114,7	4,6	4 186,3	112,2
Beshariq	748,3	114,9	3,4	3 163,4	113,0
Quva	904,4	114,7	4,1	3 370,4	112,7
Uchko‘prik	836,1	109,7	3,8	3 482,4	107,2
Rishton	738,7	114,6	3,4	3 512,3	112,4
So‘x	356,4	114,8	1,6	4 382,2	112,7
Toshloq	821,1	114,5	3,7	3 873,0	112,1
O‘zbekiston	673,9	114,8	3,1	2 710,9	112,7
Farg‘ona	932,3	114,6	4,2	4 172,4	112,1
Dang‘ara	707,2	114,9	3,2	3 863,0	112,1
Furqat	558,7	114,6	2,5	4 538,9	112,2
Yozyovon	425,3	113,5	1,9	3 666,1	111,0


Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur‘ati Quvasoy shahriga va Oltiariq tumaniga (115,3 %) to‘g‘ri keldi. Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushilari Farg‘ona shahri (24,8 %), Qo‘qon shahri (14,1 %), Marg‘ilon shahri (7,1 %), Oltiariq (5,2 %) va Buvayda (4,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So‘x (1,6 %), Yozyovon (1,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

## 2022- yilning yanvar-dekabr holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo'lgan hududlar (jamiga nisbatan %da)



2022- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 5 578,8 ming so'mga teng bo'ldi. Uning o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 112,3 %ni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (18 037,5 ming so'm), Qo'qon (11 780,3 ming so'm) va Marg'ilon (6 265,2 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Quvasoy shahri (5 527,5 ming so'm), Oltiariq (5 179,0 ming so'm) va Furqat (4 538,9 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi O'zbekiston tumanida (2 710,9 ming. so'm) kuzatildi, o'sish sur'ati 112,7 % ni tashkil etdi.